

PAPER

ASQAD MUXTOR IJODIDA SIYOSIY SURGUNLARNING SHAXS FOJIASIDAGI TALQINI

Xasanova Barno Yusupovna ^{1, *}, Saidakbarova Muqaddas Muhammadrahimovna ¹, Qurbonova Feruza A'zamovna ², Mamatqulova Feruza Tohirovna ¹, Xolmatova Nigora Yakubovna ²

¹Qo'qonDU, dotsent, (PhD)

²Qo'qonDU, katta o'qituvchi, (PhD)

* xasanova@gmail.com

Abstract

During the former Soviet era, exile was one of the specific methods of violating human rights. During the repressions, many innocent people, politicians, scientists, and cultural figures were exiled to cold countries under the label of "enemy of the people." This article examines the impact of the exile policy on the fate of people in the work of the writer Asqad Mukhtar. The topic is revealed on the example of the writer's stories "Taqdir kimning qo'lida" and "Omon qolgan odam".

Key words: turkic peoples, exile literature, repression, politics, Asqad Mukhtar, writer, era, person, tragedy.

Turkiy xalqlar tarixida alohida iztirob bilan yoziladigan shunday mavzular borki, o'quvchi ko'z o'ngida qayg'uli manzara kasb ettiradi. Inson umrining uvolligini ko'rsatib beradi. Qatag'on, qirg'in, qamoq, surgun mavzulari shular jumlasidandir. Sobiq sho'rolar davrida surgun qilish inson huquqlarini poymol etishning o'ziga xos usullaridan biri bo'ldi. Qatag'onlar davrida qanchadan-qancha begunoh odamlar, siyosat, fan, madaniyat arboblari sovuq yurtlarga "xalq dushmani" tamg'asi bilan surgun qilindi. Qatag'onning har ikki davrini (XX asrning 30-yillar oxiri, 50-yillar birinchi yarmi) ko'rgan, shu siyosatning qurboniga aylanganlarning ko'pi ijod ahli bo'lganligi tarixdan ma'lum. Mohir yozuvchi, lirik shoir, iste'dodli tarjimon, sinchkov publisist, hamda dramaturg - Asqad Muxtor ham bu davr fojialarini boshdan kechirmagan, surgunu qamoqlarni ko'rmagan bo'lsada, teran tafakkur egasi sifatida dildan o'tkazgan. Asarlarida millatdoshlarining erki, orzusi, hayot mohiyati, davrning fojiasi, taloto'plari, tahqirlari haqida goh epik, goh lirik, ba'zan sokin, ba'zan to'lib-toshib, ayrim o'rinlarda ochiq, ayrimlarida ramz bilan yozdi. Zero, shoirning o'zi:

...Qachon meni loqayd qoldirgan
Daxlsiz quvonchlar, begona dardlar?
Sochlarimga oq tushirmadimi,
Qalbga solmadimi jarohat

Zaminda tikilgan har bir qora bayroq,
Mahallaga kelgan har bir qora xat?... [2]

deya yozg'iradi. Munaqqid Ozod Sharafiddinov esa Asqad Muxtor yashagan davrga baho berar ekan: "Asqad Muxtor ham, uning tengdosh do'stlari ham hayotda ham, ijodda ham haqiqat izlashgan, albatta. Ammo haqiqatni topish g'oyat mushkul, zo'ravonlik hokim bo'lgan jamiyatda haqiqat deb soxtalik, yolg'on-yashiq, riyokorlik taqdim etiladi, to uning tagiga yetib, mohiyatini aniqlagunicha, umr o'tib ketadi. Bularning bari Asqad Muxtor avlodini o'z iste'dodini to'la ro'yobga chiqarish imkonidan maxrum qildi, ularning fikrini chekladi, ularning yuragiga qo'rquv soldi", kabi haqiqatlarni aytib o'tadi.[3] Lekin shunday bo'lsada Asqad Muxtor ijodida ijtimoiy voqelikning fojeiy talqini yetakchilik qilgan psixologik asarlar ("Buxoroning jin ko'chalari", "Omon qolgan odam", "Taqdir kimning qo'lida",) ham borligi yozuvchi ijodining hayotiyiligini belgilab beradi. Yozuvchining yaqin o'tmish tarixidan so'zlovchi "Taqdir kimning qo'lida" hikoyasi qahramoni Qulahmatning achchiq taqdiri kitobxonni larzaga soladi. Asqad Muxtor bu hikoyasida ham ma'naviy-axloqiy, ijtimoiy-psixologik tahlillarga keng o'rin beradi. Xususan, badiiy-falsafiy g'oyalar talqini "Taqdir kimning qo'lida" hikoyasida bo'rtib ko'rinadi. Hikoya ellikdan oshgan, na oilada, na jamiyatda baxt topmagan,

omadi chopmagan Qulohmatning ayanchli hayoti va taqdiridan soʻzlaydi. Qulohmat – santexnik, topgan puliga ichadi, ulfatlari bilan ichishib, keyin mushtlashib, urishib, koʻzini ochganida doimo hushyorxonada yotgan boʻladi. Hikoya qahramoni yosh leytenant uni “Taqdir odamning oʻz qoʻlida” ekaniga ishonirib, Qulohmatni oʻylashga, boshqacharoq yashashga, fikrlashga majbur qiladi. Bu qahramonning ichki monologida shunday aks etadi: “Hozir yotdi-yu, yosh leytenantni oʻylab ketdi: yaxshi bola. Milisaga sira ham oʻxshamaydi. Taqdir odamning oʻz qoʻlida emish... Joʻn gapini qara. Hay, toʻxta, bordi-yu chindan ham shunaqa boʻlsa-chi? Eh-he... Aytishga oson. Sodda-da, nimani ham koʻribdi. Nima boʻlsa ham, bolani qiynamasligi kerak. Yoʻq! Endi boshqacha yashaydi, gap bitta!”[1]. Qulohmat oʻzining chirkin hayotini tark etib, Chirchiqqa yoʻl oladi. Chunki, u yosh leytenant dashnom berganidek, taqdirini yaxshilashga harakat qiladi. U Chirchiqda “Fayz” kooperativiga ishga joylashadi. Qulohmatning hayoti ancha oʻzgarib boshlaydi. Muallif bayonida berilganidek: “Shunday qilib ajoyib odamlar orasiga tushib qoldi Qulohmat. Bunaqangi omad tushiga ham chalingan emasdi. Uy-xoʻjalik ishlarining oʻnlab xillarini bajarib turgan “Fayz” kooperativini butun shahar bilardi. “Fayz”danman, chaqirganmidigiz?” desa qoʻli gul bolalarga hamma eshiklar lang ochiq. Qulohmat ikki oy deganda umrida kiymagan kostyum oldi, hushyorxonalarda qirilaverib unutilib ketgan sochlari ham qorayib chiqdi. Chakkalarigina jinday kumushrang edi. Yuzidagi, boʻynidagi yaralar chandiqsiz bitib ketdi. Ammo yuzaki oʻzgarishlar, yuzadagi yaralar ekan. Ularning bitmaydiganlari borligini oddiy bir telefon qoʻngʻirogʻi eslatib qoʻydi”[1].

Telefon qoʻngʻirogʻi hikoyaning badiiy tuguni sifatida voqealarning yangi oʻzanga burilishiga ishora etadi goʻyo. Qulohmat telefonda Komil Mirtojyevich ismi-familiyasini eshitgani hamon tarashadek qotib qoladi. Bir telefon sabab u oʻzining sokin hayotiga nuqta qoʻyib, yaxshi ishxonasi va ajoyib doʻstlarini tashlab, toʻrvaxaltasini koʻtarib, boshi oqqan tomonga ketib qoladi. Mirkomil Mirtojyevich uning sobiq kursdoshi edi. Oʻtmish... Toʻgʻrirogʻi, Qulohmatning qora oʻtmishi qahramon xayolida qayta tiklanadi. Yozuvchi hikoyaning bu oʻrnida retrospektiviy syujetdan foydalanadi. Yaʼni orqaga qaytib, qahramonning talabalik yillarini, oʻtmishdagi qora nuqtalarni, ogʻriqli xotiralarni tasvirlaydi.

Mirkomil Murshida ismli qiz tufayli Qulohmatni butun institut oldida “xalq dushmanining oʻgʻli, yot unsur” degan ayboma bilan nafsoniyatiga tegib, siyosiy ayb qoʻyadi. Qulohmat Mirkomildan oʻch olish uchun Akmal Ikromovning byustidan foydalanib, ximiya domlasi (u Mirkomilning otasi)ning ustidan igʻvo xat yozadi. Qulohmat mana shu xatti-harakati bilan eng dahshatli gʻayriinsoniy ishga qoʻl uradi. Mirkomilning otasi otilib ketadi. Qulohmatning otasi esa surgundan qaytib keladi. Bu voqealar beixtiyor shoʻro davrining ikki dahshatli qatagʻon yillariga (1937, 1950-yillar) ramziy ishora beradi. Asqad Muxtor “Taqdir kimning qoʻlida” hikoyasida qasos oʻtida yongan Qulohmatning jirkanch ishi va baxtsiz, omadsiz hayotini tasvirlash orqali zamondoshlarimizning shoʻro davridagi qora kunlaridan hikoya etadi. Odamlar bir-biriga choh qazimoq bilan band. Yozuvchi hikoyada har kim oʻzini oʻylashi, omon qolish uchun, qasos olish uchun bir-birining ustidan yumaloq xatlar yozgan, qanchadan-qancha kishilarning yostigʻini quritgan mashʼum kunlardan bir lavhani taʼsirchan hikoya qiladi. Qulohmatni butun umr qora oʻtmish taʼqib etadi. Zero, u begunoh bir domlaning oʻlimiga sababchi boʻlib qoladi. Taqdir hukmimikan, Qulohmat sevgan qizi Murshida bilan yana koʻrishadi. Tasodif ularni yana uchrashtiradi. Santexnik Qulohmat Murshidaning chaqiruvini bilan uning uyiga borib qoladi. Murshida ham yolgʻiz, Qulohmat ham yolgʻiz. Ularning kichkinagina toʻy marosimida ichib, aljirab qolgan Qulohmat oʻzini oʻzi fosh etadi. Mana qahramon nima deydi: “ – ... Koʻrganmiz-da, mana Murshida guvoh. Deylik, mana sizning oʻnta dushmaningiz bor-a? Qani, oldin bittadan ichaylik... oling. Ha, deylik, mana

oʻnta, ham oʻn beshta dushmaningiz bor. Kechasi yotoqqa kirib qalamni asta qoʻlingizga olasiz-u bitta-bitta... nishonga olib, “chiq!” “chiq!” A labbay? Ha, bamisoli qalam emas, men sizga aytsam, ovozsiz oʻqday gap bu. Faqat tepkisini boshqa joyda boshqalar bosadi. Men oʻzim ham bittasini ... Mana Murshida guvoh, gumdon boʻlib ketgan”[1].

Hikoyaning yechimi dahshatli monolog bilan yakunlanadi. Bu monolog qotil va kushandaga aylangan Qulohmatga tegishli: “–Turmayman. Menga qara, Murshida, men turolmayman, ichimda ... tosh bor. Oʻshanda shum xabarni eshitgandan keyin, peshonamga bir shapati urib, – u peshonasiga tars etib urib ham qoʻydi, – peshonamga shunday bir urib, “men qoʻtil-man!” dedimu, yiqildim. Oʻshandan keyin turolganim yoʻq. Ichimda tosh emas, dard bor, Murshida, oʻsha yuzaga chiqadi. Qanday alfozda chiqqanini men bilmayman, eslolmayman...

Bilasanmi, bitta armonim bor: mening ham kimningdir yuziga tuflagim keladi. Lekin kimning yuziga, Murshida? Bilmayman. Bir tuflasam, mast boʻlganda yoriladigan ichimdagi oʻsha pasod balki tufugim bilan birga chiqib ketardi...”[1].

Qulohmat oʻziga oʻzi bu ichki monologni oʻqib boʻlib, u yoq-bu yogʻiga qaraganida, yonida hech qolmagan edi. U oʻzini “yangi samoderjaviye davrida yashab, tarixdan tushib qolgan odam” deb taʼriflaydi. Qulohmat oʻzining juda mudhish jinoyat, kechirilmas gunoh qilib qoʻrganini biladi. Shuning uchun ham butun umr behalovat, bevtan yashaydi. Qulohmat endi baxtini topdim deganida, ichidagi gunohlari portlab chiqib, yana eski darbadar, baxtsiz hayoti bilan qoladi. Kuzatib turganimizdek, “Taqdir kimning qoʻlida” hikoyasida Asqad Muxtor ham ijtimoiy, ham psixologik tahlilga chuqur kirishadi, nozik sarkazm vositasi bilan yaqin oʻtmish tarixida kechgan mudhish voqealardan, bu voqealar ichida vijdoniga qarshi ish tutgan imonsiz kishilarning taqdiridan bahs etadi. Qulohmat ham davr va zamon sinovlaridan muvaffaqiyatli oʻta olmaydi, insoniylik chegaralarini buzib, yovuzlikka xizmat qiladi.

“Taqdir kimning qoʻlida” hikoyasida yozuvchi kinoya va sarkazm vositasidan unumli foydalanadi, yaʼni yaqin oʻtmish voqeligiga Qulohmat hayoti va kechmishi misolida nozik ishora bera turib, “samoderjaviye davrida yashab, tarixdan tushib qolgan odam” obrazini tanqidiy, tahliliy ruh bilan yoritadi.

Zikr etilgan holat adibning “Omon qolgan odam” nomli kichik voqeyi hikoyasida ham koʻzga tashlanadi. Adib hikoyani aniq sana – 1956 yilni koʻrsatish bilan boshlaydi. Hikoyada ikki qahramon ishtirok etadi. Biri hikoyachi, ikkinchisi uning yetimxonada birga oʻsgan doʻsti. Hikoyachi-qahramon shunday deydi: “Oʻzim umrimda koʻp qiyinchilik, mushkul vaziyatlarni boshimdan kechirganman. Lekin mening koʻrgan kunim buning koʻrganlari oldida jannat desa boʻlardi”[1].

Ana shu doʻst 1941 yilda urushga ketadi. Lekin koʻp oʻtmay bedarak yoʻqoladi. Keyin maʼlum boʻlishicha, asir tushib, toʻrt yil davomida oʻlim lagerining dahshatlarini boshidan kechiradi. Urush tugagach, oilasiga undan darak keladi. Ochlik va boshqa azoblardan chalajon boʻlgan bu mahbusni gospitalga joylaydilar. Ammo bir yil oʻtar-oʻtmas uni tiriklayin asirga tushmay, soʻnggi oʻq bilan oʻzini otmagani sababli yana turmaga tiqadilar. Xullas, hikoyaning bosh qahramoni 15 yil jahannam azobini chekib, omon qoladi. Ammo bu tiriklik qahramonga juda qimmatga tushgani hikoya oxiridagina maʼlum boʻladi.

Hikoya juda ixcham, bor-yoʻgʻi bir sahifadan iborat. Hikoyada voqealar batafsil tasvirlanmay, hikoyachi-qahramon xotirasi sifatida tilga olib oʻtiladi, xolos. Ikki doʻst koʻrishganlarida, bunisi hayratdan yoqa ushlaydi, chunki uning doʻsti 15 yil jahannam azobini tortgan odamga mutlaqo oʻxshamas edi: “...u togʻni ursa talqon qiladiganday sogʻlom, baquvvat, oq yuzidan kulgi charaqlab turibdi...”[1]. Bunday bardamlikni koʻrib gʻururlanib qoʻyadi: “...mushkul yillar qaddimizni bukolmay oʻtdi-ketdi, biz esa oʻsha-oʻsha tetik!”[1]. Ammo ikki ogʻiz suhbatdan keyin bu gʻurur oʻrnini afsusu nadomat, alam iztirob band etadi. Hikoyachi 20 yil oʻtib endigina koʻrishgan doʻstini uyiga

taklif etganida, undan almoyi-aljoyi javob eshitadi: “Yo‘q, Qo‘qon xonining elchisi qabulxonamda kutib o‘tiribdi...Siz ham boring. Xurosonda vaziyat og‘ir... – dedi u”[1]. Bu orqali adib voqea yo‘nalishini tushuntirib o‘tirmaydi, balki manzarani ko‘z oldimizda yaratadi. Hayot mushkulotlarining butun ko‘rinishi bosh personajning ana shu g‘alat va sog‘lom kishiga xos bo‘lmagan gaplari orqali namoyon bo‘ladi-qo‘yadi. Adib hikoyada insoniyat tarixi va taqdirida qatag‘on davri, surgunlar va urush qoldirgan iztiroblarga ayrim shaxslar hayoti misolida ishora qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Asqad Muxtor. Insonga qulluq qiladurman (hikoyalar to‘plami). – T.: 1994-yil
2. Asqad Muxtor. Sizga aytar so‘zlarim. She‘rlar to‘plami – T.: 1978-yil
3. Sharafiddinov O. Adib hamisha yo‘lda. – T. //Guliston jurnali, 1990 yil, 12-son.